

**IMOM AL-BUXORIYNING “AL JOME’ AS-SAHIH”NING SHAXS KAMOLOTIDAGI  
O’RNI**

Mirzayev Shahzod Xo’rozovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Imom al-Buxoriyning “Al-Jome’ as-Sahih” kitobidagi qarashlari va g’oyalari, uning bugungi kun uchun ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so’z:** Iymon, yaxshilik, hadis, e’tiqod, ishonch.

**Abstract:** This article discusses the views and ideas of Imam al-Bukhari in the book “Al-Jome’ as-Sahih” and its importance for today.

**Key words:** Faith, goodness, hadith, belief, trust.

Yurtimizda yashab ijod etgan buyuk alloma va mutafakkirlarning bebafo ilmiy-ma’naviy merosini tadqiq qilish, ular qoldirgan asarlarni ilmiy-izohli tarjima qilib, ommalashtirish hamda xorijiy davlatlardagi kutubxonalar, arxiv fondlarida saqlanayotgan qo’lyozmalarning elektron nusxalarini to’plab, xalqimizga yetkazish dolzarb masalalarga aylanmoqda.

Bu borada O’zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti marhum Islom Karimov shunday degan edi: “Buyuk mutafakkir va allomalarimizning islom madaniyatini ravnaq toptirishga qo’shgan betakror hissasi to’g’risida so’z yuritganda, eng avvalo, haqli ravishda musulmon olamida “muhaddislar sultonı” deya ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriy bobomizning muborak nomlarini hurmat-ehtirom bilan tilga olamiz. Bu mo’tabar zot merosining gultoji bo’lmish eng ishonchli hadislar to’plami – “Al-Jome’ as-Sahih” kitobi islom dinida Qur’oni karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba bo’lib, ahli islom e’tiqodiga ko’ra u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug’i hisoblanadi. Mana, o’n ikki asrdirki, bu kitob millionlab insonlar qalbini iyomon nuri bilan munavvar etib, haq va diyonat yo’liga chorlab kelmoqda”.

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy Buxoro shahrida dunyoga kelib, bolalik chog’laridanoq Buxorodagi yetuk allomalaridan dars olib, hadis ilmida kuchli xotira va o’tkir zehn sohibi bo’lib voyaga yetdi. Imom al-Buxoriy o’n olti yoshida onasi va akasi Ahmad hamrohligida Makka shahriga haj qilgani borib, o’sha yerda qoldi va hadis ilmini o’rganishda davom etdi. U yerdagi zabardast ulamolardan Payg’ambarimiz sallolohu alayhi vasallamning hadislarini yozib olib, o’sha davrdagi Islom olamida mashhur bo’lgan ilmiy markazlarga safar qildi, qishloq va shaharlarni kezdi, hadis ilmidagi bahs-munozalarda ishtirok etdi. Natijada, Imom al-Buxoriy hadis ilmida kamolotga erishib, o’zi yod olgan 600 mingga yaqin hadislarini sahih va g’ayri sahihlariga ajratdi.

Imom al-Buxoriy Islom olami va muhaddislar orasida “Imom ul-Muhaddisiyn” (Barcha muhaddislarning peshvosi) deb hurmat bilan tilga olinadi. Imom al-Buxoriyning “Al-Jome’

as-Sahih” (Ishonarli to‘plam) asari haqida so‘z ketganda shuni aytish mumkinki, mazkur manba Islom dini ta’limotida Qur’oni karimdan keyin asosiy manba sifatida foydalaniladi.

Mana shunday og‘ir davrda Imom al-Buxoriy “Al-Jome’ as-Sahih” kitobini 16 yilda yozib tugatib, unga 7275 dan ortiq sahif hadislarni boblarga ajratib tartibli ravishda jamladi. Imom al-Buxoriyning “Al-Jomi’ as-Sahih” kitobiga mashhur olimlar tomonidan yuzdan ziyod sharh va xoshiyalar bitilgan. Jumladan, “Fathul-Boriiy”, “Al-Kavkab ad-Daroriy”, “Irshodus-Sariy”, “Umdat al-Qoriy”, “Fayzul Boriiy” va boshqa ko‘plab sharhlarni misol qilib keltirish mumkin.

Imom Buxoriyning ijodiy merosi o‘zining hajmi, zamonasining diniy va ijtimoiy fanlarini to‘la-to‘kis qamrab olganligi bilan kishini hayratga soladi.

“Al-Jome’ as-Sahih” kitobida insonni iymonli qilishga oid fikrlar ustunlik qiladi:

“Uchta hislatni o‘zida mujassam qilgan kishining iymoni mukammal bo‘lgaydir:

— insofli vaadolatli bo‘lmoq;

— barchaga salom bermoq;

— kambag’alligida ham sadaqa berib turmoq.

Rasululloh sallohu alayhi va sallamdan bir kishi so‘radi:

“Islomda eng yaxshi hislatlar qaysidir?”

Dedilar:

— ochlarga taom bermoqlik;

— tanigan va tanimaganga salom bermoqlik”

Demak, hadislar mazmunan har bir mo‘minning ishonchini, e’tiqodini mustahkamlaydi va shu bilan birga insonni ma’naviy kamolotga da’vat etadi. Shunday ekan, hadislar komil insonni shakllantirishda muhim manba bo‘lib hisoblanadi va undan yoshlar tarbiyasida foydalanish shu kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI:**

1. “Al-jome’ as-sahih”. 1-jild. Imom Ismoil al-Buxoriy. Arabchadan Zokirjon Ismoil tarjimasi. Qomuslar Bosh tahriri Toshkent 1991.
2. U.Uvatov,Buyuk muhaddis,O’zbekiston milliy enskilopediysi davlat ilmiy nashiryoti .Toshkent 1998
3. Sayt: zyouz.com Al- Buxoriy; Imom Al- Buxoriy wikipedia.uz